

## O'ZBEKISTONDA IJTIMOY HIMOYA YO'NALISHLARINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*Shokirov Jahongir*

*Toshkent Davlat Iqtisodiyot*

*Universiteti, Iqtisodiyot*

*fakulteti, I-92 guruh talabasi*

**Annotasiya.** Mazkur maqolada O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Ijtimoiy himoya tizimining huquqiy asoslari, amaldagi dasturlar, ularni amalga oshirishdagi muammolar hamda zamonaviy yondashuvlar ko'rib chiqilgan. Shuningdek, O'zbekiston tajribasining xalqaro standartlar va ilg'or amaliyotlar bilan uyg'unlashtirilishi masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Maqolada aholini kambag'allikdan chiqarish, ijtimoiy xizmatlarning sifatini oshirish va ularning qamrovini kengaytirish bo'yicha strategik yo'nalishlar haqida tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy himoya, ijtimoiy siyosat, kambag'allik, ijtimoiy xizmatlar, davlat dasturlari, huquqiy asoslar, O'zbekiston, rivojlantirish strategiyasi, xalqaro tajriba. kambag'allikni qisqartirish, raqamlashtirish, davlat dasturlari, maqsadli yordam, huquqiy asoslar, xalqaro tajriba

### Kirish

Ijtimoiy himoya har bir davlatning barqaror rivojlanishida muhim o'rin tutadi. O'zbekistonda bu soha ijtimoiy adolat tamoyillarini hayotga tatbiq etish va aholining ehtiyojmand qatlamlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Ushbu maqolada ijtimoiy himoya yo'nalishlarining rivojlanish tendensiyalari, huquqiy asoslari va ularni amalga oshirishdagi o'ziga xosliklar o'rganiladi.

O'tgan davrda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlami bilan ishlashni mahalla darajasida adolatli tashkil etish, to'g'ri moliyalashtirish, og'ir ahvolga tushib qolgan odamlarning ijtimoiylashuviga ko'maklashishda kamchiliklar borligi ayon bo'ldi.

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham mehnatga layoqatsiz va yolg'iz keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalarining huquqlari davlat himoyasida bo'lishining belgilanganligi mazkur sohani yagona yondashuv asosida isloh qilish zarurligi taqozo etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning 2023 yil 1 iyunda PF-82-sonli **“Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar**

**to‘g‘risida”** Farmonini imzoladi. Ushbu Farmon bilan davlat tomonidan aholini manzilli himoya qilishning asosiy yo‘nalishlari etib kompleks yondashuv asosida professional ijtimoiy himoya tizimini joriy qilish, ijtimoiy himoya tizimi samaradorligi va manzilliligini oshirish orqali aholining ko‘makka muhtoj qatlami ijtimoiylashuvini ta‘minlash, ijtimoiy himoyani mahalla darajasiga qadar tashkil etish, og‘ir hayotiy ahvolga tushib qolgan aholiga individual yondashuvga muvofiq ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatishni yo‘lga qo‘yish, aholining ijtimoiy sug‘urta mexanizmlari bilan qamrab olinishini kengaytirish, xavf guruhlariga tushib qolgan oilalarni aniqlash va kompleks ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish orqali ularning og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolishining oldini olish, nogironligi bo‘lgan shaxslarning hayot kechirishi uchun qulay muhit yaratish yo‘nalishlari belgilab berildi.

Yuqorida belgilab o‘tilgan yo‘nalishlarni amaliyotga joriy etish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Ijtimoiy himoya milliy agentligi, shuningdek, uning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalari hamda tuman (shahar)larda «**Inson**» ijtimoiy xizmatlar markazlari tashkil etildi.

Shu bilan birga mazkur farmonga muvofiq Agentlik tomonidan respublikadagi 9 milliondan ortiq ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarga xizmat ko‘rsatish tashkil etildi.

Bundan tashqari, Agentlik tomonidan **“Ijtimoiy himoya yagona reestri”** axborot tizimi orqali kam ta‘minlangan oilalarni aniqlash mezonlarini qayta ko‘rib chiqish, reestrga kiritilgan ehtiyojmand oilalarga kompensasiya turlari taqdim etish bo‘yicha ham ishlar tashkil etilgan bo‘lib, xususan, Aholidan ijtimoiy xizmatlar va yordamlar uchun dasturlar doirasida 170 dan ortiq xizmatlar va yordamlar uchun buyurtmalar qabul qilinib, **“Yagona ijtimoiy himoya”** platformasiga kiritilib, ijrosi nazoratga olinmoqda hamda amalga oshirib borilmoqda.

Xususan, 2024-yilning dastlabki 9 oyi davomida kam ta‘minlangan oilalarga bolalar nafaqalari va moddiy yordamlar to‘lash dasturi bo‘yicha 5 954.7 mlrd., nogironligi bo‘lgan bolalarga nafaqalarni to‘lash dasturi bo‘yicha 1 262.7 mlrd., bola tug‘ilishi uchun beriladigan suyunchi puli to‘lash dasturi bo‘yicha 261.4 mlrd., mehnatga layoqatsiz, zarur ish stajiga ega bo‘lmagan fuqarolarga hamda nogironligi bo‘lgan bolalarni parvarishlayotgan onalarga nafaqa to‘lash dasturi bo‘yicha 3 539.1 mlrd., yetim bolalar va ota-onalar qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni uy-joy bilan ta‘minlash dasturi bo‘yicha 117.3 mlrd. so‘m mablag‘lar to‘lab berilgan. Bu ko‘rsatkichlar esa o‘tgan yilning mos davriga nisbatan sezilarli ravishda oshganidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda, Respublikamizda fuqarolarimizning ijtimoiy himoyasi yanada yangi bosqichga ko‘tarildi.

Taklif o'rnida shuni aytish mumkinki, soha bo'yicha milliy modelni shakllantirish hamda rivojlantirishda, albatta, milliy mentalitemizni inobatga olgan holda ba'zi chet mamlakatlar modellaridan foydalanish mumkin. Misol uchun, ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatishda ham xususiy va nodavlat sektorning o'rnini yanada kuchaytirish, soha xodimlarining tayyorlash tizimini hamda xodimlarni ishga qabul qilish talablarini yangilash, buni barcha sektorda birday amal qilinishini ta'minlash, milliy modelni rivojlantirishda qo'llansa bo'ladi.

Zero, Prezidentimiz aytganlaridek, har bir oila va inson taqdiriga alohida, professional yondashish lozim. Ijtimoiy xizmat to'g'ri yo'lga qo'yilsa, ehtiyojmand fuqarolar jamiyatda o'z o'rnini topadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi: <https://strategy.gov.uz>.
2. "Ijtimoiy xizmatlar to'g'risida"gi qonun matni: <https://lex.uz>.
3. Jahon Banki: O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish bo'yicha hisoboti: <https://worldbank.org>.
4. BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP) ma'lumotlari: <https://undp.org>.
5. "Yagona ijtimoiy reyestr" tizimi haqida rasmiy hisobotlar: <https://my.gov.uz>.